

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI****ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING DAVLATCHILIK
BOSHQARUVI VA HARBIY SAN'ATI**

Xalqaro ilmiy konferensiya materiallar to'plami

2023-yil 24-mart

Toshkent 2023





**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURNOMA:
DUNYO MIQIYOSIDA IZLANISH VA TADQIQOTLAR.**

**ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР И «БАБУРНОМА»:
ВСЕМИРНЫЕ ПОИСКИ И ИССЛЕДОВАНИИ**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR AND "BABURNOMA":
RESEARCH IN THE WORLD'S MICH**



SADULLAYEVA Mahfuza Husenovna

САДУЛЛАЕВА Махфуза Хусеновна

Makhfuza H.SADULLAYEVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Преподаватель Чирчикского государственного
педагогического университета

Lecturer of the Chirchik state pedagogical university

ISLOMOVA Qunduzxon Ikramboy qizi

ИСЛОМОВА Кундузхон Икрамбой кизи

Khunduzkhon I. ISLOMOVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Студент Чирчикского государственного
педагогического университета

student of the Chirchik state pedagogical university

O'zbek davlatchiligi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu vaqlar ichida juda ko'plab yirik davlat arboblari, tenggi yo'q mutaffakirlar, yengilmas sarkardalar yashab o'tdilar. Zamonlar osha qadri oshadigan bilimlar merosi hali hanuz bizni izlanishlarga chorlaydi. Tarix shunday insonlarni ko'rganki, ularning merosini bir avlod o'rganishga ulgurmaydi. Ularning ilm tafakkuri insonlar yo'lini yoritib, olg'a yurishga undaydi. Yana shu toifa shaxslar borki, hayotning har bir jabhasida muvoffaqiyat qozonib avlodlar hayratiga sabab bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur mana shunday tarixiy shaxsdir. Uning shoir sifatida she'riyatdagi ijodi, sarkarda sifatida yuksak mahorati, tabiatning mohir kuzatuvchi, xalqlarning urf-odat va an'analari ta'rifchisi, hukmdor sifatida esa adolatli boshqaruvi bilan hali hamon yangi izlanish va tadqiqotlarning sababchisi bo'lmoqda. Bobur shaxsi haqida ko'plab olimlar asarlar yaratib, asarlari turli tillarga tarjima qilingan. Hindiston bosh vaziri Javohirlal Neru "Hindistonning ochilishi" va "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida shunday fikrlarni bildirgan edi: "Bobur- dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasi. U mard va tadbirkor odam bo'lgan. Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaasiblikdan yiroq edi. Bobur san'at va ayniqsa adabiyotni sevar edi." [1]

Boburning adabiy merosida hayot jozibasi, vatan so'g'inchi bilan yo'g'rilgan satrlari, ishq muhabbatning go'zal ta'rifi, hayoti davomida boshdan kechirgan his-tuyg'ulari, goh g'alaba, goh mag'lubiyatli onlari o'z aksini topadi. Bobur she'rlarining umumiy hajmi 400 dan ortiq bo'lsa, shulardan, 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy, ko'plab tuyuq, qit'a, fard, ma'snaviy janrlarini ham o'z ichiga oladi. Zahiriddin Muhammad Boburning butun dunyoga mashhur asari shubhasiz "Boburnoma"dir. Bu asar yirik memuar asar bo'lib unda muallifning ko'ngil kechinmalari, hayotida ro'y bergan voqea hodisalari, istak va amallari bayon etilishidan tashqari XV- XVI asrda Muvorunnahr, Afg'oniston, Xuroson, Hindiston va





bugungi Pokistondagi siyosiy-ijtimoiy axvol, tabiati, hayvonot va nabotat olami, u yerlarda yashovchi ko'plab xalqlar turmushi, shahar va qishloqlari geografiyasi, o'sha davr savdo munosabatlari, hattoki til va shevalari haqida ma'lumotlar ham joy olgan. Xususan muallif o'zi tug'ulgan shahar Andijonga juda chiroyli ta'rif beradi: "Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayhun suyining janubi tarafda ikki shimoli jonibida, janubiy tarafdagi qasabalar bir Andijondurkim, vasatta voqea bo'lubtur Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'k vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalda poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Muvorunnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidan so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafda voqe bo'lubtur. To'qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas".[2] Keyinchalik qo'lga kiritgan Kobulni ham shunday ta'rif etadi: "Kobul viloyati to'rtinchi iqlimdindur. Ma'muraning o'rtasida tushubdur. Sharqi Lamg'onot va Purshovar va Hashang'ar va ba'zi Hind viloyatidur. G'arbi ko'histonlardurkim, Karnud va G'o'r ul ko'histondadur. Bu tarixda hozara va nakdariy qavimning ma'man va maskani bu tog'lardur." [3]O'zi uchun yangi kashf qilgan yerlarni o'rganish, uning tabiati, iqlimini, xalqi va an'analari bilan tanishib, ularni ham "Boburnoma"da qayd etib borgan. Bu asarning qimmatlili va qiziqarliligi o'z davridayoq ko'pchilikning e'tiboriga sabab bo'lgan.

Bobur shaxsiyati haqida nafaqat ilmiy balki badiiy asarlar ham talaygina. O'zbek adiblaridan Oybek, Primqul Qodirov, Xayriddin Sulton, Xurshid Davron qissa va romanlar yozgan. Xususan barchamiz sevib o'qigan Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida Bobur qahramoni shunday tasvirlanganki bevosita o'sha davrga tushib yashayotgandek his qilasiz o'zingizni. Boburning ilmga munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Samarqandni uchinchi bor eggalagan Bobur shaharni qayta qurishga kirishadi. Shunda asar bir qahramoni "Hazratim, chinnixonani tiklash mumkin, ammo rasadxonani ne qilurmiz? Bobur: uni ham tiklamoq zarur "[3] deya javob beradi. Ko'pchilik rasadxonani tiklashga ikkilanadi. Chunki Mirzo Ulug'bek davrida din a'yonlari noroziligiga sabab bo'lgan bu rasadxonani tiklashga har kim ham jur'at qila olmas edi. Jahon adabiyotida fransuz adibasi Flora Anna Stilning "Boburxon", yana bir fransuz adibi Fernard Grenad "Bobur", amerikalik yozuvchi Harold Lembning "Bobur yo'lbarisi" romanlari shular jumllasidan. Hindistonlik yozuvchi Muni La'l Boburiylar sulolasi tarixiga oid 6 ta roman yozgan. "Boburnoma"da voqealar mantiqan 3 qismga ajratiladi. Movorunnahr 1494-1504 yillar, Afg'oniston 1504-1526 yillar, Hindiston 1526-1529 yillarni o'z ichiga oladi. E'tiborli taraflaridan biri shundaki, 1508-1519 yillardagi voqealar kuzatilmaydi. Bu borada bir necha taxminlar bor, ya'ni balki qo'lyozma yo'qolgan bo'lishi yohud muallifning yozish istagi bo'lmaganligi sababdir. Ammo vaqt o'tib Bobur qo'lyozmasiga yana qaytadi va voqea -hodisalarni yoza boshlaydi. "Boburnoma" eski o'zbek tilida yozilgan bo'lib, asarni "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tavorixiy Boburiy" nomlari bilan ham mashxur. Muallif o'z asarida "men bor haqiqatni yozdim" deya ta'kidlab mag'lubiyatlarni, ko'ngilsiz voqealarni, alamlarini yashirmaydi. Bu esa o'z navbatida tarix bitilgan muhim asar ekanligini anglatadi. Umrining ko'p yillarini jangu jadallarda o'tkazgan, siyosiy kurashlarda ishtirok etgan inson qanday qilib she'rlar yozishdan tashqari shunday bebaho asar yozishga vaqt topdiykan, deb o'ylab qolasiz ba'zan. Bu shuni anglatadiki, agar inson ko'ngili hayotga muhabbat ila boqsa, uni anglashga albatta vaqt ajrata olarkan. "Boburnima" fors tiliga 1586-yilda tarjima qilingan. Umuman olganda asar dunyoning 30 ga yaqin tiliga tarjima qilingan. Yevropaga XVIII asrda kirib borib, birinchi bo'lib golland tiliga Vitsen 1705- yilda tarjima qilgan. Amsterdamda chop ettirishga muvoffaq bo'lgan. "Boburnoma" ni fransuz tiliga birinchilarda bo'lib tarjima qilishga Anri Jyul Klaprot kitishadi. 1824- yili uning "Sulton Bobur yohud "Boburnoma" tarixiga oid kuzatishlar"





maqolasi bosilib chiqdi. Mashxur sharqshunos olim Anri Pave de Kurtyel 1871-yili asarning tarjimasini bosib chiqardi. Aynan Klaprotning asar qachondan boshlab yozilgan degan savolga o'ziga xos javobi bor. Olimning fikri quydagicha "Agar mendan "Boburnoma" qaysi davrda yozilgan deb so'rasalar, Bobur Hindistonni zabt etgandan so'ng, ya'ni 1526- yildan boshlab yozilgan va Boburshoh hayotining oxirigacha davom etgan deb javob qilardim". Tarjimon bunga asos qilib, asarning dastlabki boblaridan Hindiston davri voqealari uchrab turishini ko'rsatadi. Kurteylning asarni tarjima qilgach, so'z boshida bildirgan quyidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir: "Men tarjima qilgan bu asar faqat sharqshunoslar uchun emas, balki tarix va geografiya ilmi bilan shug'ullanuvchi kishilar uchun ham foydalidir. Unda XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarimida yashab o'tgan arboblardan hukmdorlar hayoti, sharqiy turk adabiyotining oltin davr ta'rifi, shahzodalar, beklar hamda fuqoroning turmushi o'z tavsifini olgandir". "Boburnoma" 1828-yili Kayzer tomonidan nemis tiliga qisqartirilib tarjima etiladi. Asarning to'liq nashrini ingliz sharqshunoslari J.Leyden va V.Erskin 1826- yilda ingliz tilida chop ettirganlar. Erskin asar bilan tanisha turib, o'z qiziqishlari va bilimlaridan foydalanib "Bobur Hindistonda" nomli kitob yozadi. Unda Zahiriddin Muhammad Boburdan tortib, Avrangzebga qadar bo'lgan tarixni yoritadi. Muallif asar muqaddimasida shunday yozadi: "Biz Osiyodagi hukmdorlar ichida Bobur singari genial va talantli kishilarni kamdan-kam uchratamiz. Aqlining aktiv faoliyati, xushchaqchaq va sovuqqonligi, bevafo taqdirning nayranglariga qaramay, ruhning tetikligi, podsholar orasida juda kam uchraydigan saxiyligi, mardligi, istedodliligi, fanga m, san'atga muhabbat va ular bilan faol shug'ullanishi jihatidan Osiyo podsholari orasida Boburga teng keladigani yo'q". Ha Mukammal asarlar o'zidan yana bir asar yaratib qayta tug'ulaveradi. "Boburnoma" ham shunday asar bir necha asrlardan buyon izlanuvchilarni hayratlantirib, yangi ilmlarning yaralishiga sabab bo'lmoqda. Asarni Rashit Rahmati Arat 1940- yilda turk tiliga tarjima qilib, kitobxonlarga taqdim etdi. Rus tiliga 1943- yilda Mixail Sale tarjima qiladi. "Boburnoma" 1826-1985 yillar davomida 4 marta ingliz tiliga, 3 marta fransuz, 1 marta nemis tiliga tarjima qilingan. Hind olimlarining ham "Boburnoma"ni o'rganishda hissasi katta. Xususan, Kashmir Universiteti professori Muhobbul Hasan " Boburnoma" xususida fikr yuritib, bu asarning Boburshoh shaxsiyati va davlat tizimi o'rganishdagina emas, balki Hindiston tarixi, geografiyasi va madaniyati va o'tmishini o'rganishda ham qimmatbaho manba ekanini, Hindistonni, uning xalqi hayotini tasvirlashda muallif idrokning naqadar o'tkirligini ta'kidlab o'tadi. "Boburga qadar birorta musulmon tarixchisi yoki geografi (Al Beruniy bundan mustasno) Hindistonni bu qadar jonli va to'g'ri tasvirlagan emas "[5] deya fikr bildirgan. "Boburnoma" ustida ko'plab izlanishlar hali hamon olib borilmoqda. Balki bu borada bizni yangi kashfiyotlar kutib turgandir. O'zbek xalqining haqiqiy faxri bo'lgan "Boburnoma" avlodlar uchun ham eng munosib sovg'a bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://saviya.uz> mashhur kishilar Bobur haqida.
2. Boburnoma Toshkent Yangi asr avlodi- 2015 yil 8-bet.
3. Boburnoma Toshkent Yangi asr avlodi-2015 yil 213-bet.
4. Primqul Qodirov Yulduzli tunlar Sharq 2009-yil 397 bet.
5. Muhammadjon Xolbekov Jahon adabiyoti jurnali 2010-yil 4-son. 171- bet.





Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik dahosi Полководческая гениальность Захириддина Мухаммада Бабура The military leadership skills of Zahiriddin Muhammad Babur



NEGMATOV Bobir Madjhitovich
НЕГМАТОВ Бобир Маджитович
Bobir M. NEGMATOV

Rezervdagi polkovnik, O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi kafedra dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
Полковник резерва, доцент кафедры Академии Вооруженных Сил
Республики Узбекистан, кандидат философских наук
Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor of the Department of the
Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan,

Vatan himoyasi tarixning turli davrlarida barcha davlat va elatlarning mard, jasur o'g'lonlari uchun muqaddas vazifa hisoblangan. Ko'p ming yillik tariximizga nazar soladigan bo'lsak, yurtimizning boshiga og'ir, sinovli kunlar tushganda uning ozodligi, osoyishtaligini himoya qilishga qodir mard va jasur farzandlari ko'kragini qalqon qilib yovga qarshi chiqqanliklarini ko'rishimiz mumkin. Ana shunday shaxslardan biri buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Darhaqiqat, Z.M.Bobur tarixda o'tgan buyuk lashkarboshilardan biridir. U katta harbiy qobiliyatga ega bo'lib, tadbirkor, ehtiyotkor va epchil lashkarboshi bo'lgan. Bobur har ehtimolga qarshi oldindan chora ko'rib qo'yish, konkret sharoitga qarab ish ko'rish, faol ijtimoiy kuchlarning nisbatini, ularning nimaga qodir-u nimadan ojizligini hisobga olishni biladigan oqil odam edi. Shu bilan birga, u uzoq yillar davomida boy harbiy tajriba orttirgan, ko'pni ko'rgan, siyosiy tajribasi zo'r kishi edi.

Boburning fikricha, mamlakat mustaqilligini himoya qilishda podshoh o'ta mulohazali, maslahat bilan ish yuritishi, shoshma-shosharlik bilan ish tutmasligi kerak. Shu bilan birga, mutafakkirning shaharni yoki mamlakatni himoya qilish uchun zarur bo'lgan vositalar haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. U o'z fikrini timsoliy ifodalab, mamlakat himoyasi uchun *bosh, ikki qo'l, ikki oyoq* kerak deydi, boshni – *bosh qo'mondonga*, ya'ni podshohga, ikki qo'lni – *yon-atrofdan* yoki *ittifoqchilardan* keladigan yordamga, ikki oyoqni – *mamlakatning mudofaasi* va *zaxirasiga* o'xshatadi: "Donishmandlar aytadilarki, qo'rg'on berkitmaklikka bosh kerak, ikki qo'l kerak, ikki but kerak. Bosh sardor bo'lgay, ikki qo'l ikki tarafdin kelayotgan ko'mak va madad bo'lgay, ikki but qo'rg'onning suvi bilan zaxirasi bo'lgay"¹.

Bobur bolaligidan boshlab harbiy san'atni o'rgangan. Buning ustiga u doim saroyda bo'lib, bu paytda harbiy ish va harakatlarni ko'rgan, ular haqida eshitgan. Shuningdek, unda harbiy san'atga tabiiy iste'dod bo'lgan. Juda ham farosatli, o'quvli bo'lgan Bobur bolaligidanoq qo'lga qilich olishga majbur bo'lgan. Shuni qayd qilish lozimki, Bobur tabiatan qo'rquv va sarosima nimaligini bilmagan. Ingliz olimi Eduard Xolden Boburning eng jasoratli odam ekanini ko'rsatib: "Bobir insonlar ichida eng botiridir", deydi. Rus olimi N.I.Veselovskiy esa shunday deydi: "Aytish mumkinki, Bobir botirligining cheki bo'lmagan: uning butun hayoti jasorat namunalari bilan to'lib-toshib yotibdi. Faqat ugina o'zining ikki yuz kishilik otryadi yordamida Shayboniy o'zining 15 minglik askari bilan mustahkamlanib

¹Bobur Z.M. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1989, 84-bet.

